



## **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRINING BUYRUG'I**

### **Umumta'lim maktabi o'quvchilari o'rtasida harbiy vatanparvarlik va ma'naviy-ma'rifiy ko'rik-tanlovlar tashkil etish va o'tkazish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618сон Farmoni va Vazirlar Mahkamasining "2022-2023-yillarda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to'g'risida" 2022-yil 16-maydagi 259-son, "O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'limga rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 27-maydagi 434-son qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida **buyuraman**:

#### **1. Quyidagilar:**

Maktabgacha va maktab ta'limi tizimidagi ta'lim muassasalarida "Eng yaxshi ekologik toza maktab" videolavhalar tanlovi tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;

maktabgacha va maktab ta'limi tizimidagi ta'lim muassasalarida "Eng yaxshi ekologik toza maktab" videolavha tanlovi g'oliblarini taqdirlash bilan bog'liq xarajatlar taxminiy smetasi 1a-ilovaga muvofiq;

maktabgacha va maktab ta'limi tizimidagi ta'lim muassasalarida o'qituvchi va ustozlarning mavqeini oshirishga qaratilgan eng yaxshi videoroliklar tanlovi tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida nizom 2-ilovaga muvofiq;

maktabgacha va maktab ta'limi tizimidagi ta'lim muassasalarida o'qituvchi va ustozlarning mavqeini oshirishga qaratilgan eng yaxshi videoroliklar tanlovi g'oliblarini taqdirlash bilan bog'liq xarajatlar taxminiy smetasi 2a-ilovaga muvofiq;

maktabgacha va maktab ta'limi tizimidagi maktab o'quvchilari o'rtasida "Huquqiy-ma'rifiy bilimdon" respublika ijodiy ko'rik-tanlovi tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida nizom 3-ilovaga muvofiq;

maktabgacha va maktab ta'limi tizimidagi maktab o'quvchilari o'rtasida "Huquqiy-ma'rifiy bilimdon" respublika ko'rik-tanlovi g'oliblarini taqdirlash bilan bog'liq xarajatlar taxminiy smetasi 3a-ilovaga muvofiq;

"Yosh qutqaruvchi", "Yosh chegarachilar", "Yosh gvardiyachi", "Vatanparvarlar" hamda "Yashil chiroq" musobaqalarining (keyingi o'rnlarda - musobaqalar) respublika bosqichi g'oliblarini taqdirlash bilan

bog‘liq xarajatlar taxminiy smetasi (keyingi o‘rinlarda - xarajatlar smetasi) 4-ilovaga muvofiq;

maktabgacha va maktab ta’limi tizimidagi umumta’lim maktablarining o‘quvchilari o‘rtasida turkum ma’naviy-ma’rifiy ko‘rik-tanlovlar tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha respublika tashkiliy qo‘mitasi tarkibi 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tashkiliy qo‘mita (D.Kenjayev) belgilangan muddatlarda ko‘rik-tanlovlarni hamkor tashkilotlar bilan yuqori saviyada tashkil etish va o‘tkazish hamda yakunlari bo‘yicha hujjatlarni rasmiylashtirish choralarini ko‘rsin.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlariga:

ko‘rik-tanlovlarning tuman (shahar) bosqichlarini joylarda o‘z muddatida tegishli nizomlar asosida yuqori saviyada o‘tkazish;

ko‘rik-tanlovlarning tuman (shahar) bosqichlarini xolisona vaadolatli o‘tkazish maqsadida tashkiliy qo‘mitalar tomonidan tajribali va yuqori malakaga ega o‘qituvchilar hamda tegishli tashkilotlarning tajribali mutaxassislarini jalgan holda hakamlar hay’ati tarkibini shakllantirish va tasdiqlash;

ko‘rik-tanlovlarning umumta’lim maktabi va tuman (shahar) bosqichlarini belgilangan muddatlarga qat’iy amal qilgan holda uyushqoqlik bilan yuqori saviyadaadolatli o‘tkazilishini ta’minalash;

hududiy bosqich yakunlari bo‘yicha hujjatlarni rasmiylashtirish va natijalarini respublika tashkiliy qo‘mitasiga taqdim etish;

ko‘rik-tanlov ishtirokchilarining xavfsizligini ta’minalagan holda respublika bosqichi o‘tkaziladigan manzilga kelib-ketishini tashkil etish;

ko‘rik-tanlovlarni tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq jarayonlarni ommaviy axborot vositalari hamda tashkiliy qo‘mitaning rasmiy veb-saytlarida keng yoritib borish vazifalari yuklatilsin.

4. Davlat xaridlarini tashkil etish bo‘limi (Sh.Yeshnazarov) mazkur buyruqning ilovasi bilan tasdiqlangan sarf-xarajatlar smetasiga asosan xaridlarni belgilangan tartibda amalga oshirsin.

5. Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘limi (F.Jamuratova) tuzilgan shartnomalarga muvofiq o‘rnatilgan tartibda to‘lovlarni amalga oshirishni ta‘minlasin.

6. Ta’lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish boshqarmasi (D.Ermatov) xarid qilingan tovar va xizmatlar qabul qilinishi va sarflanishi uchun mas’ul etib belgilansin, tadbirlar yakunlari bo‘yicha hisobotni Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘limiga kiritsin.

7. Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan ishslash boshqarmasi (D.Sobirova) ko‘rik-tanlovlarning respublika bosqichi taqdirlash marosimini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish va vazirlikning veb-saytiga joylashtirish choralarini ko‘rsin.

8. Ushbu buyruqning bajarilishini nazorat qilish vazir o‘rinbosari D.Kenjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



X.Umarova

Toshkent sh,  
2023-yil “ 10 ” - mart,  
54 - son

O‘zbekiston Respublikasi  
Maktabgacha va maktab  
ta’limi vazirining  
2023-yil “ 10 ” - martdagi  
54 - son buyrug‘iga  
1-ILOVA

**Maktabgacha va maktab ta’limi tizimidagi ta’lim muassasalarida  
“Eng yaxshi ekologik toza maktab” videolavhalar tanlovini tashkil etish  
va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi  
NIZOM**

**I. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur nizom maktabgacha va maktab ta’limi tizimidagi ta’lim muassasalari o‘rtasida “Eng yaxshi ekologik toza maktab” videolavhalar tanlovini tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi.

2. O‘tkaziladigan tadbirlar uchun ta’lim muassasasi rahbarlari tomonidan pedagogik jamoa, o‘quvchilar, ularning ota-onalari yoki o‘rnini bosuvchi shaxslardan pul yig‘imlarini undirishga yo‘l qo‘yilmaydi (homiylik holatlari bundan mustasno).

3. O‘tkaziladigan tadbirlar davomida, O‘rmon xo‘jaligi agentligi va uning hududiy boshqarmalari tomonidan bepul tarzda ajratilgan gul va nihol ko‘chatlaridan foydalangan holda bog‘lar, gulzorlar yaratiladi.

**II. Tanloving maqsad va vazifalari**

4. Tanlov maqsadi – o‘quvchi-yoshlar o‘rtasida mehnatsevarlik, ekologik madaniyat, tabiatga ehtiyojkorona munosabatni shakllantirish, ta’lim muassasalarini ko‘kalamzorlashtirish va obodonlashtirish orqali o‘quvchi-yoshlarning faolligini oshirish, ular tomonidan amalga oshirilayotgan ijodiy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish.

5. Tanloving vazifalari – o‘quvchi-yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, qadriyat, urf-odat va an‘analarni o‘quvchi-yoshlar ongiga singdirish, jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘quvchilarning kasbga bo‘lgan intilishini oshirish, obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlarida o‘quvchi-yoshlarning takliflari asosida innovatsion bog‘larni barpo etish, o‘quvchi-yoshlarni ijtimoiy faolligini oshirish, innovatsion menejment, marketing va PR (Jamoatchilik bilan aloqalar) texnologiyalaridan foydalangan holda o‘zaro tengdoshlari bilan tajriba almashinuvini tashkil etishdan iborat.

**III. Tanloving o‘tkazish tartibi va baholash mezoni**

6. Tanloving har yili aprel - may oyida maktabgacha va maktab ta’limi tizimidagi ta’lim muassasalari o‘rtasida o‘tkaziladi.

7. Tanlov doirasida quyidagi 4 ta shart bo‘yicha loyiha va aksiyalar tashkil

etiladi:

**“Mehrli gullar” loyihasi** – umumta’lim mакtabining sinf xonalari, mакtab foyesi, kirish qismi noodatiy holda xona gullari va landshaftlar bilan bezatiladi va gullar ta’lim muassasalarining faol o‘quvchilari tomonidan doimiy parvarish qilib boriladi. Ekilgan gullar ko‘paytirilib, bayramlar munosabati bilan mакtab mikrohududidagi yolg‘iz qariyalarga sovg‘a sifatida taqdim etib boriladi. Ekilgan gullar tez ko‘payishi va landshaftlarda ko‘rinishining o‘zgachaligi bilan ajratilishi lozim - **25 ball;**

**“O‘quvchilar bog‘i” loyihasi** - ta’lim muassasasi hududidagi yer maydonlari sinflar kesimida taqsimlanadi. Ajratilgan yer maydonlariga o‘quvchi-yoshlarning takliflari inobatga olingan holda (yaqin 2 yoki 3 yil ichida hosilga kiradigan) mevali daraxtlar ekilib, “O‘quvchilar bog‘i” yaratiladi. Mevali daraxtlarni to‘g‘ri tanlashga e’tibor qaratish talab etiladi. O‘quvchilar tomonidan mакtab hududi obodonlashtirilib, mакtab hovlisi va uning atrofidagi yer maydonlari ko‘kalamzorlashtiriladi. Umumta’lim mакtabi hududi o‘quvchilar sonidan kelib chiqqan holda har bir sinf nomidan manzarali daraxt ko‘chatlari bilan boyitiladi.

Mavjud daraxtlarga o‘quvchilarning ismi familiyasi bitilgan maxsus (etiketkalar) bog‘lagichlar bog‘lanib, daraxtlar sinf o‘quvchilariga biriktiriladi va mazkur o‘quvchilar tomonidan doimiy parvarishlanib boriladi. Umumta’lim mакtabi atrofi obodonlashtiriladi. Daraxtlar soni o‘quvchilar soniga nisbatan hisoblanadi - **25 ball;**

**“Tabiatning do‘stiman” aksiyasi** - o‘quvchi-yoshlar tomonidan ekologik madaniyatni targ‘ib etuvchi memlar (turli belgi va shakllarning tasviriy ifodasi) tayyorlanadi, ular ta’lim muassasasiga va atrof hududiga joylashtiriladi. Memlarni tayyorlash jarayonida kreativlik ko‘rsatish tavsiya etiladi - **25 ball;**

**“Hashar navolari” media tanlovi** - bahor mavsumida tashkil etiladigan hasharlar davomida o‘quvchilar tomonidan umumta’lim mакtabning hashar qo‘sиг‘i tayyorlanib, mакtab xor jamoasi tomonidan birgalikda ijro etiladi va ijtimoiy tarmoqlarga [#obod\\_mакtab](#), [#hasharnavolari](#) xeshtegi bilan joylashtirib boriladi - **25 ball;**

8. Tanlov uch bosqichda amalga oshiriladi:

**Birinchi bosqich** - ta’lim muassasalarida tanlov va aksiyalar o‘tkaziladi va o‘tkazilish jarayonlari (barchasi) ta’lim muassasalarining ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalarida yoritib boriladi hamda amalga oshirilgan ishlar yakuni yuzasidan ta’lim muassasasi tomonidan 5 daqiqagacha bo‘lgan maxsus ijodiy videolavha (barcha loyiha va aksiyalar tasvirga olingan holda mobil versiyada 20 mb dan oshmagan holda) tayyorlanadi. Loyihaning qamrov hisoboti va erishilgan natija bo‘yicha texnik xulosasi (texnik xulosa mutaxassis (*mutaxassis bo‘lmagan holatda mакtabning biologiya fani o‘qituvchisi*) tomonidan berilgan bo‘lishi lozim) ilova qilingan holda Maktabgacha va mакtab ta’limi vazirligiga (Telegram messendjeri orqali [@obod\\_mакtab](#) manziliga) elektron ravishda 1-10-may kuniga qadar yuboriladi.

**Ikkinci bosqich** - kelib tushgan ijodiy ishlar maxsus saralash guruhi, respublika ekspertlar guruhi tomonidan 10-17-may kuniga qadar saralanadi.

Ekologik oylik davomida “Eng yaxshi ekologik toza maktab” tanlovi nomzodligiga munosib deb topilgan 42 ta (har bir hududdan 3 tadan) ta’lim muassasasining ijodiy videolavhalari jamoatchilik tomonidan baholanishi uchun aprel oyining uchinchi haftasigacha Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining Facebook ijtimoiy tarmog‘idagi rasmii sahifasiga joylashtiriladi.

**Uchinchi bosqich** - ovoz berish jarayonlari muddati yakunlanguniga qadar maxsus saralash guruhi a’zolari, respublika ekspertlar guruhi joylarga chiqqan holda ekologik oylik davomida “Eng yaxshi ekologik toza maktab” tanlovi nomzodligiga munosib deb topilgan 42 ta ta’lim muassasasi faoliyatini o‘rganadi.

9. Jamoatchilik baholashi “Like” natijalari va ekspertlar guruhi xulosalariga ko‘ra ekologik oylik davomida “Eng yaxshi ekologik toza maktab” deb hisoblangan 14 ta (har bir hududdan 1 tadan) ta’lim muassasasi g‘olib deb topiladi.

#### **IV. Tanlov g‘oliblarini taqdirlash**

11. Oylik yakuniga ko‘ra, “Eng yaxshi ekologik toza maktab” deb topilgan 14 ta (har bir hududdan 1 tadan) ta’lim muassasasi g‘olib deb e’lon qilinadi hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining diplom va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlanadi.

Shunindek, tanlovning respublika bosqichi o‘tkazilinishi hamda taqdirlanishi bilan bog‘liq masalalar respublika tashkiliy qo‘mitasi qaroriga muvofiq tashkil etiladi.

#### **V. Yakuniy qoidalar**

12. Ta’lim muassasalarining ishtiroki va sonini tahlil qilish natijasida hududiy Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari va tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari faoliyatiga baho beriladi.

13. Oylik doirasida o‘tkaziladigan loyiha va aksiyalar bo‘yicha faoliyat ochiq ovoz berish yo‘li va joyiga chiqib baholanishi sababli apellyatsiya komissiyasi tashkil etilmaydi, ishtirokchilar tomonidan bildirilgan yozma ariza va e’tirozlar ko‘rib chiqilmaydi.

14. Mazkur nizomga zaruratdan kelib chiqqan holda tashkiliy qo‘mita tomonidan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi  
Maktabgacha va maktab  
ta’limi vazirining  
2023-yil “ 10 ” - martdagি  
54 - son buyrug‘iga  
2-ILOVA

**Maktabgacha va maktab ta’limi tizimidagi ta’lim muassasalarida o‘qituvchi  
va ustozlarning mavqeini oshirishga qaratilgan eng yaxshi videoroliklar  
tanlovini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi  
NIZOM**

**I. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur nizom o‘qituvchi va ustozlarning mavqeini oshirishga qaratilgan eng yaxshi videolavhalar tanlovini (keyingi o‘rinlarda – Tanlov) tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi.

**II. Tanlovning maqsad va vazifalari**

2. Ta’lim muassasalari o‘quvchilari tomonidan o‘z ustozlari faoliyatiga nisbatan hurmat aks ettirilgan videolavhalarni yaratish va tarqatish orqali o‘quvchi-yoshlarning faolligini oshirish, ular tomonidan amalga oshirilayotgan ijodiy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish.

3. Tanlovning vazifalari – o‘quvchi-yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, qadriyat, urf-odat va an’analarni o‘quvchi-yoshlar ongiga singdirish, jamoa bo‘lib ishslash ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘quvchilarning o‘qituvchilik kasbiga bo‘lgan intilishini oshirish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish, tengdoshlari bilan o‘zaro tajriba almashinuvini tashkil etish, shu bilan birga jamiyatda o‘qituvchi maqomini oshirishdan iborat.

**III. Tanlovnin o‘tkazish tartibi**

4. Tanlov har yili sentabr oyi davomida maktabgacha va maktab ta’limi tizimidagi ta’lim muassasalari o‘rtasida o‘tkaziladi.

5. Tanlov doirasida ta’lim muassasalari tomonidan jamiyatimizda o‘qituvchi va murabbiylarning mehnatini ulug‘lashga qaratilgan **5 daqiqagacha** bo‘lgan maxsus ijodiy **videolavha** (rasmlar ketma-ketligi/slaydshou, kollaj shaklida tayyorlangan materiallar qabul qilinmaydi) tayyorlanadi (hajmi 20 mb dan oshmagagan holda).

6. Tanlov bir bosqichda o‘tkaziladi:

ta’lim muassasalari o‘quvchilari tomonidan tayyorlangan videolavhalar Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan ijtimoiy tarmoqda yaratiladigan maxsus sahifa (bot) orqali har yili 10-17-sentabr kunlari qabul qilinadi.

Videolavhalar (har bitta hududdan 3 tadan jami 42 ta) tashkiliy qo‘mita tomonidan ko‘rib chiqiladi hamda 22-sentabr kuni Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining Facebook ijtimoiy tarmog‘ida yaratiladigan sahifasiga ovoz yig‘ish uchun joylashtiriladi;

Joriy yilning 22-25-sentabr kunlari (22-sentabr kuni soat 12:00 dan 25-sentabr kuni soat 18:00 ga qadar) Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining Facebook ijtimoiy tarmog‘idagi sahifaga joylashtirilgan 42 ta videolavhalar orasidan eng ko‘p “Like” to‘plagan 3 ta “Eng yaxshi videolavha” mualliflari “Like” natijalari va ekspertlar guruhi xulosalariga ko‘ra g‘olib deb topiladi.

#### **IV. Baholash tartibi va mezonlari**

7. Tanlov doirasida uning ishtirokchilari tomonidan tayyorlangan videolavhalarning baholanish jarayonini shaffoflik tamoyilida tashkil etish maqsadida tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari hamda viloyat maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalarida maxsus hakamlar hay‘ati komissiyasi tuziladi.

Hakamlar hay‘at komissiyasi tarkibi toq sondan (5 kishidan kam bo‘lmagan) iborat mutaxassis xodimlardan tashkil topishi shart.

Taqdim etilgan videolavhalar quyidagi mezonlar asosida 100 ballik tizimda baholanadi:

a) videolavha ssenariysida ustoz va murabbiylarning ulug‘lanishi ochib berilganligi – 40 ballgacha;

b) videolavhada turli sinf o‘quvchilarining ishtirok etganligi – 10 ballgacha;

v) videolavhani sifatli tasvirga olinganligi – 10 ballgacha;

g) ijodiy videolavhaning tayyorlanishida ijodkorlik va kreativlik namoyish etilganligi – 20 ballgacha;

d) so‘nggi yillarda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar hamda o‘qituvchining sha’ni va qadr qimmatini ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali targ‘ib qiluvchi videolavha va materiallar o‘quvchilar ishtirokida [#ustozimfaxrim](#) xeshtegi ostida ommaviy fleshmoblarning aks ettirilganligi – 20 ballgacha.

#### **V. Tanlov g‘oliblarini taqdirlash**

8. Ovoz to‘plash yakunlari va ekspertlar xulosasiga ko‘ra “Eng yaxshi videolavha” deb topilgan 14 ta videolavha mualliflari g‘olib deb e’lon qilinadi hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining diplom va qimmatbaho sovg‘alari bilan taqdirlanadi.

Shunindek, tanlovning respublika bosqichi o‘tkazilinishi hamda taqdirlanishi bilan bog‘liq masalalar respublika tashkiliy qo‘mitasi qaroriga muvofiq tashkil etiladi.

## **VI. Yakuniy qoidalar**

9. Ta’lim muassasalarining ishtiroki va sonini tahlil qilish natijasida hududiy maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari va tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari faoliyatiga baho beriladi.

10. Tanlov doirasida saralash ochiq ovoz berish yo‘li bilan amalga oshirilishi sababli apellyatsiya komissiyasi tashkil etilmaydi, ishtirokchilar tomonidan bildirilgan yozma ariza va e’tirozlar ko‘rib chiqilmaydi.

11. Oxirgi uch yillikda g‘oliblikni qo‘lga kiritgan jamoa yoki ishtirokchilarga ham qayta ishtirok etishlariga ruxsat etiladi.

12. Mazkur nizomga zaruratdan kelib chiqqan holda tashkiliy qo‘mita tomonidan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi  
Maktabgacha va maktab  
ta'limi vazirining  
2023-yil "10" - martdagi  
54 - son buyrug'iiga  
3-ILOVA

**Maktabgacha va maktab ta'limi tizimidagi maktab o'quvchilari o'rtasida  
"Huquqiy-ma'rifiy bilimdon" respublika ijodiy ko'rik-tanlovini tashkil etish  
va o'tkazish tartibi to'g'risida**

**I. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Nizom umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida "Huquqiy-ma'rifiy bilimdon" respublika ijodiy ko'rik-tanlovlarini tashkil etish va o'tkazish tartibini belgilaydi.

**II. Tanloving maqsadi**

2. Yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish, Konstitutsiyaning muhim jihatlarini ularga bolaligidan boshlab o'rgatish, ularning ijodiy salohiyatlarini, vatanparvarlik tuyg'ularini va sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini rivojlantirish, ular qalbida yot g'oja ta'sirlariga qarshi mustahkam immunitetni shakllantirish.

o'quvchilar o'rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish bo'yicha huquqiy-ma'rifiy tadbirdarni xalqimiz tarixi, dini, milliy qadriyatlarini o'rgatish bilan uyg'un holda tashkil qilish, shuningdek, har bir o'quvchida davlat ramzları bilan faxrlanish tuyg'ularini shakllantirish orqali mamlakatga daxldorlik, vatanparvarlik, faol fuqarolik pozitsiyasini kuchaytirish;

o'quvchilarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda shaxsiy manfaatlari hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini keng targ'ib qilish;

mamlakatimizda aholining turmush tarzini yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, yurtimizda inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlanishi o'quvchi-yoshlar ongiga singdirish orqali ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini va huquqiy bilimlarini oshirish.

3. Mustaqil va erkin fikrlovchi, qat'iy e'tiqodga ega bo'lgan yuksak bilimli, intellektual salohiyatlari, mustaqillik tamoyillariga sodiq, jismoniy va ma'naviy jihatdan barkamol avlodni tarbiyalash va yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyatini yosh avlod ongiga chuqur singdirish hamda o'quvchi yoshlarni iste'dodi, ijodiy qobiliyatini aniqlash va rag'batlantirishdan iborat.

**III. Tanlovni tashkil etish tartibi**

4. Tanlov umumta'lim maktablarining 2-11-sinf o'quvchilari o'rtasida diktant, ijodiy bayon, insho, tasviriy san'at, savol javob, test, sahna ko'rinishi yo'nalishlarida o'tkaziladi.

5. Tanlov har yili 4 bosqichda:

**birinchi bosqich** – maktab bosqichi: **5-oktabrdan 30-oktabrga qadar** umumiy o‘rtalim maktablarida;

**ikkinchi bosqich** – tuman (shahar) bosqichi: **30-oktabrdan 10-noyabrga qadar** barcha maktablar ishtirokida Bolalar musiqa va san’at maktablarida;

**uchinchi bosqich** – hududiy bosqich: **10-noyabrdan 25-noyabrga qadar** Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlar miqyosida;

**yakuniy bosqich** – respublika bosqichi: **dekabr** oyining birinchi haftasida o‘tkaziladi.

6. **2-4-sinf o‘quvchilari** o‘rtasida **diktant** bir bosqichda (faqat maktab miqyosida) har bir sinf kesimida 1 nafardan;

7. **5-8-sinf o‘quvchilari** o‘rtasida **ijodiy bayon** ikki bosqichda (maktab va tuman/shahar miqyosida) har bir sinf kesimida 1 nafardan,

8. **9-11-sinf o‘quvchilari** o‘rtasida to‘rt bosqichda (maktab, tuman/shahar, hududiy va respublika miqyosida) 7 nafar ishtirokchidan iborat jamoalar o‘rtasida o‘tkaziladi.

Tuman (shahar) bosqichida yo‘nalishlar bo‘yicha 9-11-sinf o‘quvchilari va jamoalari o‘rtasida 1-o‘rinni egallagan ishtirokchilar uchinchi bosqichda ishtirok etish huquqini qo‘lga kiritadi.

10. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tasarrufidagi respublika ta’lim muassasalarining o‘quvchilari Toshkent shahar bosqichida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishtirok etadilar.

11. Ko‘rik-tanloving uchinchi bosqichida (har bir hududdan 7 nafardan) 1-o‘rinni egallagan jami yo‘nalishlar bo‘yicha (insho yo‘nalishida 14 nafar, tasviriy san’at yo‘nalishida 14 nafar hamda 5 ishtirokchidan tarkib topgan 14 ta jamoa) respublika bosqichida ishtirok etadilar.

12. O‘quvchilarining ijodiy ishlari hakamlar hay’ati yig‘ilishi qarori bilan **har yili noyabr oyining birinchi haftasi yakuniga qadar** quyidagi hujjatlarni ilova qilgan holda respublika ishchi guruhi (Maktabgacha va maktab vazirligi)ga taqdim etiladi:

uchinchi bosqich hakamlar hay’ati qarorining asl nusxasi;

ko‘rik-tanloving 3-bosqichida 1-o‘rinni egallagan o‘quvchilarning ijodiy ishlari asl nusxasi;

ko‘rik-tanloving uchinchi bosqichida 1-o‘rinni egallagan o‘quvchilarning ma’lumotnoma (obyektivka)si.

13. Ko‘rik-tanloving respublika bosqichida ishtirok etish uchun uchinchi bosqichda

1-o‘rinni egallagan jami yo‘nalishlar bo‘yicha (insho yo‘nalishida 14 nafar, tasviriy san’at yo‘nalishida 14 nafar hamda 5 ishtirokchidan tarkib topgan 14 ta jamoa) ishtirokchilari Toshkent shahriga taklif etiladi.

#### **IV. Ko‘rik-tanlov shartlari va baholash mezoni**

14. “Jaholatga qarshi ma’rifat” mavzusida tasviriy san’at yo‘nalishi ishtirokchilari o‘zlarining ijodiy ishlari mazmun-mohiyati, unda ilgari surilgan g‘oyalarni ifodalovchi qisqacha og‘zaki bayon taqdim etadilar.

15. Tasviriy san'at yo'nalishida har bir ishtirokchi 2-tagacha ijodiy ishlari bilan ishtirok etadi. Tasviriy san'at yo'nalishi bo'yicha taqdim etilgan ishlar o'lchami 40x60 sm.dan oshmasligi lozim.

16. Tasviriy san'at yo'nalishidagi ijodiy ishning orqa tarafiga yelimlangan maxsus kartochkalarda quyidagi ma'lumotlar bo'lishi shart:

- a) o'quvchilarning familiyasi, ismi, sharifi;
- b) maktabi, sinfi, yoshi;
- v) o'qituvchisining ismi, sharifi;
- g) ijodiy ish mavzusi.

17. Hakamlar hay'ati tomonidan ishtirokchilarning ijodlari jami 100 ballik tizimda baholanadi va baholash jarayonida quyidagilarga e'tibor beriladi.

#### **Tasviriy san'at yo'nalishi:**

ijodiy ishning formatga nisbatan to'g'ri joylashtirilganligi, mavzu jihatdan original topilganligi hamda badiiy va g'oyaviy ifodada ranglardan to'g'ri foydalananligi – 20 ballgacha;

mavzu g'oyasining ochib berilganligi – 30 ballgacha;

ijodiy ishda yoshlarni turli zararli oqimlar ta'siridan va "ommaviy madaniyat" xurujlaridan himoyalanishning targ'ib qilinganligi – 20 ballgacha;

ijodiy ishda diniy aqidaparastlik hamda mazkur illatlar oqibatlarining aks ettirilganligi – 20 ballgacha;

ishlash mahorati va uning tugallanganlik darajasi – 5 ballgacha;

tanlangan mavzuning mazmuni, ma'nosi ochib berilganligi hamda ranglar uyg'unligi – 5 ballgacha.

#### **Insholar yo'nalishi:**

"Jaholatga qarshi ma'rifat" mavzusida yoziladi:

ishtirokchi ijodiy ishi yuzasidan yetaricha bilimga ega bo'lishi, o'z ijodiy ishini hakamlar hay'ati oldida himoya qila olishi – 20 ballgacha;

mavzu g'oyasining ochib berilganligi – 30 ballgacha;

ijodiy ishda yoshlarni turli zararli oqimlar ta'siridan va "ommaviy madaniyat" xurujlaridan himoyalanishning targ'ib qilinganligi – 20 ballgacha;

ijodiy ishda diniy aqidaparastlik hamda mazkur illatlar oqibatlarining aks ettirilganligi – 20 ballgacha;

ijodiy ishda texnik talablarga amal qilinganligi – 10 ballgacha baholanadi.

18. Tanlov ishtirokchilari 100-ballik tizimida hakamlar hay'ati tomonidan baholanadi.

Tanloving Respublika bosqichi savollari Maktabgacha va muktab ta'limi vazirligi tomonidan, hududiy bosqich savollari xalq ta'limi boshqarmalari tomonidan va tuman (shahar) bosqichining savollari tuman (shahar) maktabgacha va muktab ta'limi bo'limlari tomonidan tegishli mutaxassislarini jalb qilgan holda tuziladi.

19. "**Mening huquq va majburiyatlarim**" mavzusidagi ko'rik-tanloving shartlari va baholash mezonlari (5 nafar o'quvchidan iborat jamoalar ishtirok etadi):

a) *Test sinovlari.* Bu shartda mutaxassislar tomonidan tuzilgan, maxfiyligi ta'minlangan va konvertda muhrlangan 25 ta test savollariga axborot-

kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda (25 daqiqa) jamoa a'zolari birgalikda javob beradi. Ushbu shart jami 50-ballgacha (bitta to'g'ri javobga 2 ball) baholanadi.

b) *Huquqiy bilimdonlik*. Bu shartda jamoalar oldindan tuzilgan maxfiyligi ta'minlangan va konvertda muhrlangan 3-ta savoldan iborat biletga javob beradi. Biletga tayyorgarlik ko'rish uchun 5 daqiqagacha va javob berish uchun 2 daqiqagacha vaqt beriladi. Ushbu shart jami 30 ballgacha (*bitta savolning to'liq va to'g'ri javobi 10 ballgacha*) baholanadi.

v) *Sahna ko'rinishi*. Bu shartda jamoalar o'quvchilarning huquqiy madaniyati va savodxonligining ahamiyati, voyaga yetmaganlar o'rtasidagi huquqbazarliklar, "ommaviy madaniyat" ko'rinishlari, ularning yoshlar hayoti va kelajagiga salbiy ta'sir ko'rsatish, oqibatlari va oldini olish choralar bo'yicha erkin sahna ko'rinishini namoyish qiladi.

Ushbu shartga jamoalar oldindan tayyorgarlik ko'rib kelishadi va ularga ushbu shartni bajarish uchun 5-7 daqiqa vaqt beriladi. Ushbu shartda mavzuning ochib berilganligi, maktabda olingan bilimlarning aks ettirilishi, o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlari va ijro mahoratlari inobatga olingan holda jami 20-ballgacha baholanadi.

## V. G'oliblarni taqdirlash

20. Tanlovning barcha bosqichlari g'oliblari umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Ertalabki saflanish"larda e'lon qilinadi hamda tashkilotchilar tomonidan faxriy yorliq va maxsus esdalik sovg'alar bilan taqdirlanadi.

21. Umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbariyati tomonidan tanlovda g'olib bo'lgan o'quvchilar ota-onalarining ish joyi rahbariyati va turar joyidagi mahalla fuqarolar yig'ini raisi nomiga "Minnatdorchilik" xati yuboriladi.

22. Tanlovning tuman (shahar) va hududiy bosqichlarida g'olib bo'lgan ishtirokchilar joylardagi tegishli maktabgacha va maktab ta'limi boshqaruvi organlari tomonidan esdalik sovg'alar va diplomlar bilan taqdirlanadi.

23. Ko'rik-tanlovning respublika bosqichi ishtirokchilarining eng sara ijodiy ishlari alohida rukn ostida vazirlik muassisligidagi gazeta va jurnallarda hamda vazirlikning veb-saytida ommalashtiriladi.

24. Tanlovning Respublika bosqichida hakamlar hay'ati tomonidan 1-, 2-, 3-o'rinalar va nominatsiyalarga munosib deb topilgan g'oliblar Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining esdalik sovg'alarini bilan taqdirlanadi.

Shuningdek, apellyatsiya komissiyasi tashkil etilmaydi, ishtirokchilar tomonidan bildirilgan yozma ariza va e'tirozlar o'rnatilgan tartibda tanlovdan so'ng o'r ganib chiqiladi va tegishli xulosalar beriladi.

25. Tanlovning Respublika bosqichi g'oliblarini taqdirlash marosimi vazirlikning tegishli ko'rsatmasiga muvofiq tanlov o'tkazish joyi, manzil, aniq ko'rsatilgan holda tashkil etiladi.

Shunindek, tanlovning respublika bosqichi o'tkazilishi hamda taqdirlanishi bilan bog'liq masalalar respublika tashkiliy qo'mitasi qaroriga muvofiq tashkil etiladi.

## **VI. Yakuniy qoidalar**

26. Tashkiliy guruhlar tanlovni birinchi va ikkinchi bosqichida o‘quvchilarning faol ishtirok etishi uchun tegishli shart sharoitlar yaratishga mas’ul hisoblanadi.

27. Mazkur nizom talablariga javob bermaydigan va belgilangan muddatlardan kechikib taqdim etilgan ijodiy ishlar baholanmaydi.

28. Tanlovda ishtirok etgan o‘quvchilarning ijodiy ishlari egasiga qaytarilmaydi.

29. Oxirgi ikki yillikda g‘oliblikni qo‘lga kiritgan jamoa yoki ishtirokchilar qayta ishtirok etishlari ta’qiqlanadi.

26. Mazkur nizomga zaruratdan kelib chiqqan holda tashkiliy qo‘mita tomonidan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi  
Maktabgacha va maktab  
ta’limi vazirining  
2023-yil “ 10 ” - martdagি  
54 - son buyrug‘iga  
5-ilova

**Maktabgacha va maktab ta’limi tizimidagi umumta’lim maktablarining  
o‘quvchilari o‘rtasida turkum ma’naviy-ma’rifiy ko‘rik-tanlovlar tashkil  
etish va o‘tkazish bo‘yicha respublika tashkiliy qo‘mitasi**  
**TARKIBI**

|    |                   |  |
|----|-------------------|--|
| 1. | D.Kenjayev        | Vaziri o‘rinbosari, tashkiliy qo‘mita raisi  |
| 2. | D.Ermatov         | Ta’lim tashkilotlarda tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i, tashkiliy qo‘mita raisi o‘rinbosari |
| 3. | D.Sobirova        | Jamoatchilik va OAV bilan bilan ishslash boshqarmasi boshlig‘i, a’zo   |
| 4. | F.Zaripov         | Ta’lim tashkilotlarda tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish boshqarmasi bosh mutaxassisi, a’zo                         |
| 5. | E.Axmadaliyev     | Ta’lim tashkilotlarda tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish boshqarmasi yetakchi mutaxassisi, a’zo                     |
| 6. | M.Nazarova        | Ta’lim tashkilotlarda tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish boshqarmasi yetakchi mutaxassisi, a’zo                     |
| 7. | D.O‘rolov         | Respublika bolalar kutubxonasi direktori, a’zo   |
| 8. | Z.Jabborova       | Respublika ta’lim markazi Standart va baholash bo‘limi Ijtimoiy va gumanitar fanlar bo‘yicha metodist, a’zo            |
| 9. | Lavozimi bo‘yicha | Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlar “Barkamol avlod” bolalar markazlari direktori, a’zo       |

\* Qo‘mita a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki zimmasiga tegishli majburiyatlarni bajarish yuklatilgan shaxslar kiritiladi.